



INTEGRATION OF MUSIC AND FINE LITERATURE IN THE FORMATION OF PATRIOTISM IN TEENAGERS

Umedova Afifa Jamshidovna¹, Azimova Nasiba Ergashevna²

¹ Bukhara State University, Faculty of Pedagogy, 2nd year master's degree in "Theory and History of Pedagogy"

² Bukhara State University, Faculty of Pedagogy, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4945640>

ARTICLE INFO

Received: 01st June 2021

Accepted: 05th June 2021

Online: 10th June 2021

KEY WORDS

Demonstration education, integration, differentiation, object, patriotism, thinking, educational process.

ABSTRACT

This article discusses the integration of music and literature in the formation of a sense of patriotism in adolescents. The definition and meaning of the term "integration" are broad. The relationship between music and fiction is fully illustrated by the works of poets, writers, composers and composers.

O'SMIRLARDA VATANPARVARLIK TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHDA MUSIQA VA BADIY ADABIYOT INTEGRATSIYASI

Umedova Afifa Jamshidovna¹, Azimova Nasiba Ergashevna²

¹ Buxoro davlat universiteti Pedagogika fakulteti "Pedagogika nazariyasi va tarixi" yo'nalishi 2-bosqich magistranti,

² Buxoro davlat universiteti Pedagogika fakulteti Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-iyun 2021

Ma'qullandi: 05-iyun 2021

Chop etildi: 10-iyun 2021

KALIT SO'ZLAR

Ko'rgazmali ta'lim, integratsiya, differentsiatsiya, ob'ekt, vatanparlik, tafakkur, ta'lim jarayoni.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'smirlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda musiqa va badiiy adabiyot integratsiyasi haqida fikr yuritilgan. «Integratsiya» atamasining ta'rifi va mohiyati keng bayon etilgan. Musiqa va badiiy adabiyotning o'zaro aloqadorligi shoir, yozuvchilar hamda bastakor, kompozitorlarning ijod namunalari vositasida to'laqonli yoritilgan.

Ta'lim tizimini rivojlantirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol inson sifatida tarbiyalash uchun imkon beruvchi, mukammal ta'lim tizimini yaratish, uning

samaradorligini oshirish kabi masalalar bu sohadagi islohotlar asosini tashkil etadi. Bu borada umumiy o'rta ta'limning o'rni beqiyos hisoblanadi. Ta'limning interaktiv



kursi ko'rgazmali ta'lim sistemasi bo'lib, integrativ bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish asosida ko'rgazmali, mahoratni vujudga keltirish sirlarini o'rganadi. Ko'rgazmali ta'lim sistemasi turli xildagi tiplar, shakllar, usullar, ob'ektlar asosida qurilgan. Bilimning integratsiyalashgan (ko'rgazmali) tarmog'ida integratsiyalashning usul va vositalari: ta'lim rejasidagi o'qitish joyida: vaqtning hajmiga qarab shu kursni to'la o'zlashtirish vaqti o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi: ko'p maqsadli va rang-barangligi hamda ko'p funksiyaga egaligi bilan tavsiflanadi (ko'rgazmali).

O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida «integratsiya» atamasi lotin tilida «integratio» – tiklash, to'ldirish, «integer» – butun degan ma'nolarni anglatishi izohlanadi. U quyidagicha tavsiflanadi: 1. Sistema yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o'zaro bog'liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha. 2. Fanlarning yaqinlashishi va o'zaro aloqa jarayoni differentsiatsiya bilan birga kechadi. 3. Ikki va undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini o'zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish" kabi ma'nolarda qo'llaniladi.¹

Integratsiya - pedagogik hodisa sifatida ta'lim jarayonida, fanlararo bilimlarni (integrativ bilimlarni) chuqurlashtirish va oshirish, ularni rivojlantirishda qo'llaniladi.

Integratsiyalovchi ta'lim kursining yo'nalishlari:

- ko'p predmetlilik bunda (ikki yoki undan ortiq) fundamental fanlarni qiyoslash;

- chegara fanlar asosida – yangi fanlarni vujudga keltirish, buning asosida yangi tabiiy hamda ilmiy fanlar vujudga keladi;

- asosiy (o'zak) fanlar –zamonaviy bilimlarning hamma tarmoqlariga singib ketuvchi fanlar va umumiy ilmiy tushunchalar, qoidalar va nazariyalardir.

- kompleks ob'ektlarini o'rganish bu «koinot», «odam», «muhit» degan tushunchalarni birlashtirish;

- mahalliy (tabiiy-ilmiy bilimlar) va global (muhim) muammolar – ilmiy, ekologik, polietnik, sanoat va mamlakatning madaniy rivojlanishi bilan millatning bugungi kundagi tutgan o'rne bilan chambarchas bog'liq.

- faoliyat asosida-o'quv tarbiya faoliyatining har xil ko'rinishlari kitoblar, kuzatishlar, tajribalar, bilim, maxorat va ko'nikmalar.

- tabiat va jamiyatning rivojlanish qonunlariga bo'lgan shaxsiy munosabatni shakllantirish: ko'rgazmalar asosida integratsiya, didaktik sistemada (o'qituvchi va o'quvchining faoliyati); Ko'rgazmali yondoshishga olib keluvchi metodlar va usullar – evristik suhbatlar (savol-javob uslubi), rejali boyitadigan suhbatlar, ekskursiyalar, ijodiy ishlar, mustaqil ishlar,antomimika, sahna ko'rinishlari, namunali qiroat bilan o'qish, insho yozish, diktant, bayon yozish, matematik masalalarni yechish.

- tabiat va inson yagona tizimi va o'zaro aloqada faoliyat ko'rsatish hamda insoning planetada yashab qolishi uchun ilmiy asoslangan foydalanishni tashkil qilishi zarurligi;

- ilmiy o'rganishning gumanizatsiyasi jarayoni ijtimoiy gumanitar, tabiiy amaliy va texnik fanlar metodlarining o'zaro

¹ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 4-том. –Т.: «Ўзбекистон Миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2002. - 179 б.



ta'siri, ilmiy faoliyatning gumanitar-shaxsiy metodlari sohalarida ifodalandi;

- ta'limni rivojlantirishning eng umumiy samarali yo'li zamonaviy fanni turlicha uslubiy yondoshuvlarning optimal o'zlashtirish;

- «tabiat-inson» tizimidagi tabiiy – ilmiy va gumanitar fanlarni integratsiyalashuvi sifatidagi gumanizatsiyalashuvi;

- tabiatda mavjud ob'ektiv aloqalarni o'zlashtirish orqali o'quvchilarda shaxsini shakllantirish;

- boshlang'ich sinflarda integratsion bilim malakalarini va ko'nikma hosil qilish;

- har bir o'quv predmetini o'kiyotgan paytda o'quvchilarga to'g'ri keladigan psixik qo'zg'alish hosil qilishi, bu materialni o'zlashtirilishiga katta yordam beradi, uni tez yodda saqlashga, emotsional anglashga, fikrlash qobiliyatining o'sishi, nutq va tasavvurning rivojlanishiga olib keladi.

Integratsiya negizida o'quvchilarda fikrlash qobiliyatining xar hil tiplarini shakllantirish, bu esa bilim (anglash) jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir.

- tabiatda mavjud bulgan ob'ektlar orqali o'quvchilarning shaxsiyatini shakllantirish;

- «tabiat –inson» sistemasida aniq bilimlarga ega bo'lishi uchun fikrlash qobiliyatini shakllantirish;

- materiallarni anglab yetish va didaktik adaptatsiya shakllantirish uchun o'rganuvchi materialni bilimning xar xil tarmoqlaridan olish;

- o'quvchilarda sistemalashgan fikrlash qobiliyatini shakllantirish uchun o'rganuvchi materialni bilimning xar xil tarmoqlaridan olish uchun dunyoning zamonaviy ilmiy kontekstidan foydalanish;

- tabiatning ob'ektlari va ko'rinishlarini, jarayonlarining,

qonunlarini, jamiyatning rivojlanish qonunlarini iqtisodiyot gumanitik va demokratik bilimlarni shakllantirish;

- bilim, ko'nikma, malaka sistemasini ishlab chiqish;

- maktab ta'lim kurslaridagi integratsiyani ma'nosi, keng miqdordagi fikrlar va faktlar majmuasi, bir- biriga yaqin fanlarning birlashuvi;

- maktab o'quvchilarida har xil tipdagi fikrlash qobiliyatini shakllantirish, buning uchun ruhiy mashqlardan foydalanish, materialni tez o'zlashtirishiga yordam beradi, uni eslab qolish va emotsional anglash qobiliyatini shakllantiradi.

O'quvchilarda adabiyotga qiziqish, o'qishga havas uyg'otpsn maktab ta'limi sohasida olib boriladigan umumiy ishning uzviy qismi hisoblanadi. Shu boisdan ham, usul ta'limning maqsadi, vazifasi, tartibi va yo'llarini o'rganadigan didaktika, tashqi olamning inson faoliyati va xatti-harakatiga, ruhiyatiga, ta'sir etish qonuniyatlarini o'rganuvchi ruhiyat shuningdek, badiiy adabiyotny tadqiq etuvchi adabiyotshunoslik fanlari bilan bog'lanib ketadi. Bu bog'lavishlar ada-biyot kursiniig mazmuni, maqsadi va qurilishini aniqlashda ochiq-oydin ko'zga tashlanadi.

Musiq va badiiy adabiyotni integratsiyalab o'rgatishda o'quvchilarning faoliyat ko'rsatishi muhim ahamiyatga ega. O'quvchi tafakkur qilish, faoliyat ko'rsatish bilan bilimlarii egallaydi, uning ongida bi-lim tafakkur va faoliyat mahsuli sifatida shakllanadi va rivojlanadi.

O'quvchilarda anglash faoliyatini oshirish uchun ularga ta'lim usullarini o'rgatish muhimdir. Fanlarni o'zaro bog'lab o'rgatish usuli u yoki bu fan bo'yicha o'rganilayotgan voqea va hodisa haqida o'quvchida jonli mushohada qilish



malakasini o'stiradi, bu bilan o'quvchi voqea, hodisa haqida anik tasavvurga ega bo'ladi. O'qituvchi ularda hosil bo'lgan ana shu tasavvurni umumlashtiradi, natijada o'quvchilarda u yoki bu fan haqida aniq tushuncha shakllanadi.

Darsda har bir voqea, atroflicha, ya'ni unga xos bslgilarni o'zaro aloqada, birlikda o'rganish ularni puxta anglashni ta'minlaydi. Tabiatdagi o'zgarishlar haqida ilmiy fikr yuritish voqelikni bilishda eng ishonchli yo'l bo'lib, u har bir fan bo'yicha to'plangan bilimlarni to'g'ri umumlashtirish imkonini beradi.

Musiq va badiiy adabiyotni bog'lash o'ziga xos xususiyatga ega. O'qituvchi og'zaki bayon, suhbat, mustaqil ishlash usullaridan foydalanadi. Agar darsni suhbat bilan o'tkazish rejalashtirilsa, oldin mavzuga oid dalillar to'planadi, u dalil mavzuga qiyoslanadi, qiyoslash yo'li bilan o'quvchilar o'qituvchining savollariga javob beradilar, o'qituvchi ularning javobini umumlashtiradi va xulosalaydi.

Fanlararo integratsiyani tafakkurning rivojlanishiga qiyoslash mumkin. Chunki fanlar o'quvchilarni dalil va hodisalar tahlilini turli usulda uyushtirishga o'rgatadi, bu esa o'quvchilarda qiziqish hissini, il-miy dunyoqarashii shakllantirish va ustirishga, akliy fikrlashni faollashtirishga yordam beradi. Demak, o'quvchilarni adabiyotdan qay darajada chuqur va puxta bilimga ega bo'lishlari ularning boshqa ijti-moiy fanlar bo'yicha olgan bilimlari va hosil qilgan malaka hamda ko'nikmalariga suyanan holda ish ko'rishga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Ijtimoiy fanlar o'z tarkibiga ona tili, adabiyot, tarix, musiq, ashula, raem fanlarini qamrab oladi va ularni o'zaro birlashtiradi. Ammo ularning har biri o'zining tadqiq etish manbai va usuliga ega.

Shu sababli, maktabda ularni o'rganishda o'quvchilarni bu fanlar o'rtasidagi o'xshashlikni, har biriga xos xususiyatini, har birini o'rganish usullarini bilib olishlariga erishish o'qituvchilar oldiga asosiy vazifa qilib qo'yiladi.

Ijtimoiy fanlarni, ayniqsa, adabiyot va musiqani o'zaro bog'liq holda o'rganishda axloqiy, estetik va ijtimoiy-siyosiy tarbiya har tomonlama kamol topgan faol shaxsni shakllantirish vazifalari bilan uyg'unlashib ketadi va umumiylikni tashkil qiladi. Bu esa o'z navbatida, mashg'ulotlarda o'quvchilar inson ideallari faqat nazariy tushuncha bo'lmay, obrazli umumlashma ekanini ham bilib olishlariga imkon beradi.

Fanlararo aloqani amalga oshirishda, o'qituvchi o'z fani yaxshi bilishi bilan birga, boshqa fanlardan ham xabardor bo'lishi muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi, avvalo, o'z fanini, o'zi o'qitayotgan fanni, uning asoslarini bilishi kerak. O' fanning mohiyatini, hozirgi ahvolini, uning taraqqiyotidagi asosiy bosqichlarni, uning boshqa fanlar bilan, ijtimoiy munosabatlar bilan aloqasini bilishi, amaliyot bilai aloqasini tushunishi kerak.

"Fanlararo integratsiyaga xos xususiyat nimadan iborat? Fanlarni integratsiyalab o'rganiladigan darslar odatdagi mashg'ulotlardan nimasi bilan farq qiladi?"

Fanlararo integratsiyaga xos xususiyat, avvalo, darsdan kuzatilgan maqsad va vazifalarga qarab belgilanadi, ularni bog'lashdagi muvaffaqiyat esa darsning to'g'ri tashkil etilishiga, qo'llanadigan usullarga bog'liqdir.

O'qituvchi dastur materiallarini o'tishda darsning mazmuniga, o'quvchilarning bilim saviyasiga, o'zlashtirish qobiliyatiga, o'quv



qurollarining mavjudligiga qarab usullarni tanlaydi. Shuningdek, o'qituvchi:

yangi mavzuni o'tishga ajratilgan soatni hisobga oladi;

boshqa ijtimoiy fanlar bo'yicha yangi mavzuni o'zlashtirishga yordam beradigan materiallarni aniqlaydi;

darsda qo'llash zarur bo'lgan ko'rgazmali qurollarni (jadval, xarita, rasm) tayyorlaydi va ulardan foydalanadi;

o'quvchilarning boshqa ijtimoiy fanlardan o'zlashtirgan bilim hamda egallagan ko'nikmalarini aniqlaydi va ularga suyanadi.

O'smirlarda vatanparlikni shakllantirishda badiiy asarni san'at namunasi sifatida apg'lab olishlarida adabiyotni musiqa bilan bog'liq holda o'qitish alohida ahamiyatga ega.

Adabiyotni tasviriy san'at, musiqa kabi san'at turlari bilan bog'liq holda o'qitish maktab tajribasida bir necha yillardan buyon sinab kelinmoqda. Ma'lumki, adabiyot darslarida san'at asarlaridan turli maqsadda — o'rganilayotgan asar va undagi obrazlarni o'rganish, o'quvchilarning madaniy va estetik dunyoqarashini rivojlantirish, ma'naviy dunyosini boyitishda foydalaniladi.

Musiqa—hayotimizda katta o'rin egallagan san'at turlaridandir. Musiqa kishini o'ziga sehrlab qo'yadi, uni tushunish esa dunyoni anglamoq demakdir. Biz musiqani radio, ekran orqali, teatr va konsert zallarida, maktab va

oromgohlarda— xullas, hamma joyda tinglaymiz. N.V.Gogol musiqaning o'ziga xos xususiyatinn mana bunday ta'riflagan edi: «U — butkul ehtiros, u kishini turgan zaminidan birdaniga, bir yo'la uzib oladida, uni qudratli tovushlar guldurosi bilan gangitib qo'yadi va shu ondayoq o'z olamiga maftun qiladi». Musiqa o'quvchilarda adabiyotga, mehnatga, go'zallikni yaratishga havas, qiziqish hissini tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi.

Masalan, Alisher Navoiy she'riyatini o'rganishda «Guluzorim», «Ulturg'usi», «Ulmasuv», «Bormikan», «O'n sakkiz yoshimdadur» qo'shiqlarini; Muqimiy lirikasini o'rganishda «Suvora», «Bir kelib ketsun», «Muncha ham», «Kim desun», «Ayrilmasun» qo'shiqlarini; Furqat ijodini o'rganishda «Sayding qo'yaber, sayyod», «Istar ko'ngil», «Bahor ayyomida», «Ul qaro ko'z» qo'shiqlarini, Hamza hayoti va ijodi o'rganilganda uning xotirasiga bag'ishlab yozilgan I.Akbarovning «Shoir xotirasi», D.Zokirovning «Hamza» simfonik poemalari, S.Boboevning «Hamza» operasidan parchalarni eshittirish mumkin. Bunday vaqtda o'quvchilarga «Bu kimning she'ri?». «Qo'shiq musiqasini qaysi bastakor yozgan?», «Ashulani kim ijro etgan?» kabi savollar berib, qisqacha so'hbat o'tkaziladi.

Bu esa, adabiyot o'qitishni mamlakatimizda ijtimoiy va madaniy hayot sohasida yuz berayotgan rivojlanish darajasiga ko'tarishda muhim omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi -T.: O'zbekiston. 2018.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni -T.: "O'zbekiston", 2020 yil 23 sentabr.
3. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - T.: "O'zbekiston", 2017 y., - 592 b



4. Mirziyoev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". T.: "O'zbekiston" 2016 yil
5. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish - xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning muhim poydevoridir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil, 4 avgust, 153-son.
6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz T.: O'zbekiston, 2017. 242b.
7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.
8. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.
9. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. - T.: O'qituvchi, 1994. -428 b.
10. Аминов Б., Расулов Т. Ватан юракдаги жавоҳир. - Т.: Ўқитувчи, 2001. -232 б.
11. Aliev A. Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat . - T.: Akademiya, 2000.
12. Alimova D.A., Rashidova D.A. Mahmudxo'ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri. - T.: Akademiya, 1999. -53 b.
13. Aminov B., Rasulov T. Vatan yurakdagi javohir. - T.: O'qituvchi, 2001. -232 b.
14. Asrlarga teng yillar. Mustaqillik darsi (ma'ruza matni). - T.: O'AJBNT markazi, 2001. - 60 b.
15. Atadjanova Sh. Oilada o'spirin-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari: ped.fan.nomz. dis-yasi. - T.: TDPU, 2001. - 136 b.